



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
—
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili	127

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

Maqolada o'qitishni yaxshilash, ta'lism jarayonini optimallashtirish yo'lida an'anaviy usullarni takomillashtirish bilan bir qatorda, yangi, zamon talablariga binoan fan va texnika yutuqlariga moslashgan usullar haqida fikr bayon etilgan. Bunday usullardan biri ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalar (axborot kommunikatsiya texnologiyalar va interfaol usullar)dan o'qituvchining yordamchisi sifatida foydalanish usulidir.

Kalit so'zlar: ta'lism, o'qituvchi, metod, bilim, ko'nikma, kompetentsiya, integratsiya.

В статья рассматривается совершенствования традиционных методов совершенствования преподавания, оптимизации образовательного процесса, в статье описана идея новых методов, адаптированных к достижениям науки и техники в соответствии с требованиями времени. Одним из таких методов является использование инновационных технологий (информационно-коммуникационных технологий и интерактивных методов) в образовательном процессе в качестве помощника преподавателя.

Ключевые слова: образование, учитель, метод, знания, навыки, компетентность, интеграция.

The article discusses the improvement of traditional methods of improving teaching, optimizing the educational process, the article describes the idea of new methods adapted to the achievements of science and technology in accordance with the requirements of the time. One of such methods is the use of innovative technologies (information and communication technologies and interactive methods) in the educational process as a teacher's assistant.

Keywords: education, teacher, method, knowledge, skills, competence, integration.

Bugungi kunda jamiyatimiz zamonaviy bilim, ko'nikma va malakaga, turli muammolarni hal etishga ijodiy yondashadigan yuqori malakali kadrlarga muhtoj. Shuning uchun ham ta'lism oldiga katta talablar qo'yiladiki, ulardan eng muhimi darsning samaradorligi, uning sifati, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallashidir. Ta'lism o'quvchiga bilim berish bilan birga odob-axloq qoidalarini o'rgatadi, oilaga, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Bu o'quvchida o'z-o'ziga ishoch, mehr-oqibat va insoniy fazilatlarni shakllantirish, hayotda o'z o'rmini topish, muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Ta'lism-tarbiya insonning ma'nnaviy yuksalishi va kamolotining asosiy ne'matidir. Shu bois, o'quv jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalar, jumladan, zamonaviy kompyuterlar, videoproektorlar, elektron doskalar, ko'rgazmali qurollar, mul'timedia, animatsiya, grafikalar, slayd va videoroliklar, simulyatorlar, kompyuterlar va mobil o'yinlar, elektron va aqlii darsliklardan foydalanish, integratsiya qilish lozim. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsda o'ziga "Bugungi darsni qanday qilib qiziqarliroq qilishim mumkin?" degan savolni berishi kerak. Ya'ni, an'anaviy ta'limgan qochish,

innovatsion ta'limga intilish bugungi kun talabidir [1]. "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlaegasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz" – deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari o'z nutqida.

Darhaqiqat, bugungi kun kechangi kun emas! Bugungi yoshlarga yangi, zamon talablariga mos, dunyo tajribasini qo'llagan holda dars bermog'imiz darkor. Yoshlarni mantiqiy tafakkurini shakllantirish, ularning aqliy savodxonligini oshirish, tafakkurini rivojlanterib boruvchi bilimlar berish, o'zligini anglash, boshqalar bilan muloqotda o'zini tuta bilish, o'zgalar fikrini o'qish, erkin fikrlay olish va uni dadil bayon qilishga o'rgatish lozim. Buning uchun dunyo tajribasini o'rganib, ilg'or, pedagogik va innovatsion texnologiyalarga asoslangan darslarni tashkil etish, yangidanyangi interfaol metodlardan foydalangan holda yuqori natijalarga erishish zarur.

Kechagi dars berish uslubi bilan ta'limgi jadal rivojlanterib bo'lmaydi. Shu bois, avval amalda yaxshi natija bergen xorijiy metodikasi asosida ta'lism dasturlarini yaratib, o'qituvchilarни qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo'lishi kerakki, u bolalarga o'qishga muhabbat uyg'otsin.

Buning uchun o‘quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o‘ziga kerakligini anglashi zarur. “Yoshlar imtihondan o‘tish uchun emas, bilmli mutaxassis bo‘lish uchun o‘qishi lozim” - deydi davlatimiz rahbari.

Bugungi o‘qituvchi zamon talablariga mos tarzda ta’lim berish, yoshlardan bir qadam oldindagi yurishi kerak. Yoshlarimiz shunchalar talabchanki ular kompyuter, telefon va internet sohasini tez o‘zlashtirmoqda. Shuning uchun bu yoshlarga yangicha ta’lim berish usul va metodlarini qo‘llash, yangi texnologiyalarni ta’limga olib kirib zamonaviy tarzda dars berish ularning kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Innovatsion texnologiya vositalari o‘quvchilarning kompetentsiyasi shakllanishi ularning zamonaviy ta’lim olishiga katta yordam beradi. O‘quv materiallarni izchillik bilan faol o‘zlashtirishga, egallangan nazariy bilimlarni amalga tatbiq qila olishga o‘rgatadi. O‘quvchilar o‘zlashtirish darajasini tez va ob’ektiv aniqlashda o‘ta qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi [2].

Shunday ekan, ta’lim jarayonida barcha bosqichlarni innovatsion texnologiya vositalari yordamida tashkil etish va boshqarish, bu ishlarni amalga oshirish uchun ta’lim etikasiga mos innovatsion texnologiya vositalarini ishlab chiqish va uni ta’limning barcha bo‘g‘inlarida tatbiq etish usuliyotini ishlab chiqish hozirgi axborot texnologiyalar asrida oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biridir.

Umumiy o‘rtalik mazmunining asosiy vazifalaridan biri kadrlar tayyorlash sifatini davlat ta’lim standartlari va xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, o‘quv jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda ishlab chiqarishni ta’lim jarayoniga samarali integratsiyalashdan iborat. Bu vazifalarini amalga oshirishda o‘quvchilarning ta’lim jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatuvchi kompetentsiyaga asoslangan davlat ta’lim standartlarini yaratish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish zarurati yuzaga keldi[3].

Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy sohani rivojlantirish bilan bog‘liq holda ta’limni rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha qator manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rtalik va o‘rtalik maxsus, kasbhunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori qabul qilinishi ta’lim tizimida o‘qitishga tubdan yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Umumalik fanlarini o‘qitishda zamonaviy metodlardan

foydalanish o‘quv jarayoniga kompetentsiyaviy yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning kompetentsiyasini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu (187-sonli) qarorning 3-ilovasi umumiyo‘rtalik va o‘rtalik maxsus, kasbhunar ta’limining umumalik fanlari bo‘yicha malaka talablarida “Tayanch va fanga oid umumiyo‘rtalik kompetentsiyalar”(4-§) belgilab berilgan. Shuningdek, qarorning 1-ilovasining 13-bandida umumiyo‘rtalik ta’limning «davlat ta’lim standarti»da umumiyo‘rtalik ta’limga qo‘yiladigan malaka talablar, umumalik fanlari bo‘yicha ta’lim mazmuni va ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan tashkil topadi:

bilim – o‘rganilgan ma‘lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko‘nikma – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetentsiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi [1;122-b.]:

Kommunikativ kompetentsiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishslash kompetentsiyasi – media manbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishslashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi – doimiy ravishda o‘zo‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi – jamiatda bo‘layotgan voqealari, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtiroy etish, o‘zining fuqarolik burch va

72 huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya – vatanga sadoqatlari, insonlarga mehr-oqibatlari hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi – aniq hisobkitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi[1;139-b.]

Ushbu kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning o'quv jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarni egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita kundalik hayotida qo'llashga, notanish vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablarining tuzilishida kompetentsiyalarini tayanch va fanga oid umumiy kompetentsiyalarini shakllantirish nazarga tutildi.

Bunda:

-tayanch kompetentsiyalar – ta'lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;

-fanga oid kompetentsiyalar – ma'lum o'quv fan doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetentsiyalar – bu kasbiy va mehnat muammolarini hal qilishga qaratilgan va bitiruvchining mehnat bozoridagi ijtimoiy va mehnat munosabatlariga integratsiyalashuvining omili bo'lgan barcha(ko'pchilik) kasblar va mutaxassisliklar uchun o'zgarmas faoliyatning universal usulidir [4].

Dunyoda tayanch kompetentsiyalarining yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir davlat yoki mintaqaning o'ziga xos an'analari, mentaliteti, ehtiyojlari va strategiyasi bor. Shuning uchun tayanch kompetentsiyalar ro'yxati har bir davlat uchun jamiyat tomonidan fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy talablar va majburiyatlariga, shuningdek, mamlakat yoki mintaqaning ijtimoiy muhitiga muvofiq standartlashtiriladi va belgilanadi. Ta'limning ma'lum bosqichida har bir fan bo'yicha tayanch kompetentsiyalar aniqlanadi [5].

Tayanch kompetentsiyaning mazmunini aniqlash uchun uning umumiy vazifasi va ta'limdagi roli bilan bog'liq tuzilma kerak bo'ladi.

Kompetentsiyalarining an'anaviy ta'lim parametrleri bilan solishtirilishini ta'minlash uchun ta'limdagi kompetentsiyalar tarkibi quyidagicha tavsiflanadi:

- kompetentsiyaning nomi;
- kompetentsiya tipi va uning umumiy ketma-ketlikdagi o'rni (tayanch, umumiy mavzu, mavzu);
- kompetentsiya kiritilgan real ob'ektlar doiras;
- kompetentsiyaning ijtimoiy-amaliy dolzarbliji va ahamiyati;
- kompetentsiyaning shaxs uchun ahamiyati;
- real ob'ektlar sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar;
- o'quvchilarning ushbu kompetentsiya (o'qish) doirasida ishlashi uchun zarur bo'lgan minimal tajriba;
- o'quvchilarning malakasini aniqlash uchun o'qitish va nazoratni baholash vazifalari (o'rganish bosqichlari bo'yicha) misollari.

Taqdim etilgan komplekt o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi va ijodiy tayyorgarligi darajasini o'chaydigan normativ hujjatlar, o'quv metodik adabiyotlar to'plamini, shuningdek, hujjatlarni rasmiylashtirish va yoritish uchun tavsiflarni belgilaydi.

Didaktika va metodologiyada asosiy, umumiylanfan va fan kompetentsiyalarining mazmunini aks ettirish uchun ularni maxsus texnologiya asosida qurish zarur.

Fanga (ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik) tegishli ta'lim kompetentsiyalarini ro'yxati tuziladi. Buning uchun fanga oid kompetentsiyalarini (kommunikativ kompetentsiya, axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, milliy va umummadaniy kompetentsiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi) qidiradi. Fanga oid tayanch kompetentsiyalarini shakllantirishdagi hissasi aniqlanadi.

Taqdim etilgan asosiy kompetentsiyalar umumiy tarzda belgilanadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish bosqichlari, o'quv fanlari va ta'lim yo'nalishlari to'g'risida batafsil ma'lumotni talab qiladi. Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining boshlang'ich sinf o'quv dasturiga kiritilgan har bir umumiy va chuqurlashtirilgan fanlarni o'qitishda tanlangan tayanch kompetentsiyalarining ma'lum elementlari shakllanadi va rivojlantiriladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiya vositalaridan foydalanib darslarni tashkil etish, o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lganligi bois, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiya vositalarini qo‘llashning pedagogik, psixologik, usuliy tomonlarini o‘rganish, o‘quvchilarning kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan.

Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’limni axborotlashtirish, ta’limni rivojlantirish, o‘qitishga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim

samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limdagи o‘zlashtirish darajasi bilan cheklanib qolmasdan, yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, o‘zlashtirgan bilimlarini tushunish va kundalik faoliyatida qo‘llashga o‘rgatish kerak. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvlar asosida bilim berish, o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan (elektron ta’lim vositalari) foydalanish, ularning kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

Adabiyotlar

1. Адилова С. Мультимедиа ва уларни таълим жараёнида қўллаш // Педагогик таълим –Т.: ТДПУ, 2001. № 2. – Б. 20-21.
2. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения: Материалы к четвертому заседанию методологического семинара. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 84 С.
3. Гладышева Е.Н. Негативное влияние компьютерных технологий / – Санкт-Петербург: Свое издательство, 2017. – С. 99-106. 56. Гребенникова Н.Л., Гадельшина А.А., Никитина В.Р. Особенности использования интерактивных методов в процессе обучения младших школьников математике. Sciences of Europe, 2021. (62-2), 36-39.
4. Гуров В.Н. Конструирование образовательного пространства в контексте модульно – компетентностной технологии // Инновации в образовании. – 2011. – №5. – С. 4-19. 58.
5. Денисов А.П., Мосягина Н.Г. Автоматизированные системы обучения в среде начального и среднего профессионального образования // Современные научноемкие технологии. – 2007. – № 6. – С. 37-38; 59. Жўраев А.Р. Бўлажак касб таълими ва касбий фанлар ўқитувчиларининг фаоллигини оширишда дастурлаштирилган таълим воситалардан фойдаланиш // —Мехнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришда инновацион ёндашувлар|. Республика илмий-амалий анжумани. Бухоро. 2019. – Б.77-80.
6. Закирова А.Б. Формирование поликультурной компетентности учащихся начальных классов сельской школы : диссертация ... кандидата педагогических наук : – Ижевск, 2011. – 238 с.
7. Усаров Ф. Таянч ва фанга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини такомиллаштириш ва ўқувчиларнинг компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан.док.(DSc)дисс. – Тошкент: – 2019. 267 б.